

## GM VA UZAUTO MOTORS O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIKNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

**Mirzayeva Durdona Maxamadjonovna**

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi  
Biznes boshqaruvi yo'nalishi magistranti.

[durdonamirzayeva66@gmail.com](mailto:durdonamirzayeva66@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19680437>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada GM va UzAuto Motors o'rtasidagi hamkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari tarixiy va zamonaviy kesimda tahlil qilinadi. Tadqiqotda hamkorlikning institutsional evolyutsiyasi, ishlab chiqarish quvvatlari, eksport dinamikasi, motor ishlab chiqarish integratsiyasi hamda moliyaviy natijalar o'rganildi. Tahlil natijasida hamkorlikning dastlabki bosqichida kapital, texnologiya va menejment transferi asosiy omil bo'lgani, keyingi bosqichda esa brend, platforma, motor ishlab chiqarish va eksport geografiyasi orqali iqtisodiy samara davom etgani aniqlandi. Shuningdek, 2024–2025 yillardagi hisobotlar asosida daromad, foyda, aktivlar, kapital va eksport ulushi dinamikasi baholandi.

**Kalit so'zlar:** GM, UzAuto Motors, hamkorlik, iqtisodiy ko'rsatkichlar, avtomobil sanoati, eksport, daromad, foyda, quvvat, lokalizatsiya.

## ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ GM И UZAUTO MOTORS

**Аннотация.** В статье анализируются экономические показатели сотрудничества между GM и UzAuto Motors в историческом и современном разрезе. Исследуются институциональная эволюция партнерства, производственные мощности, экспортная динамика, интеграция моторного производства и финансовые результаты. Анализ показывает, что на начальном этапе сотрудничества ключевую роль играли трансферт капитала, технологий и управленческого опыта, а на последующем этапе экономический эффект сохранялся за счёт бренда, платформ, моторного производства и расширения экспортной географии. На основе отчетности за 2024–2025 годы оценена динамика выручки, прибыли, активов, капитала и доли экспорта.

**Ключевые слова:** GM, UzAuto Motors, сотрудничество, экономические показатели, автомобильная промышленность, экспорт, выручка, прибыль, мощность, локализация.

## ECONOMIC INDICATORS OF COOPERATION BETWEEN GM AND UZAUTO MOTORS

**Abstract.** This article analyzes the economic indicators of cooperation between GM and UzAuto Motors from both historical and current perspectives. The study examines the institutional evolution of the partnership, production capacities, export dynamics, powertrain integration, and financial results. The findings show that at the initial stage the main drivers of cooperation were capital, technology, and management transfer, while at the later stage the economic effect continued through the brand, platforms, engine production, and export geography. Based on the 2024–2025 reports, the dynamics of revenue, profit, assets, equity, and export share are assessed.

**Keywords:** GM, UzAuto Motors, cooperation, economic indicators, automotive industry, export, revenue, profit, capacity, localization.

## **KIRISH**

O‘zbekiston avtomobil sanoati mamlakat sanoat siyosatida strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq doirasida GM va keyinchalik UzAuto Motors o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u oddiy ishlab chiqarish kooperatsiyasi bilan cheklanmagan, balki kapital qo‘yilma, texnologiya transferi, boshqaruv tajribasi, brend integratsiyasi, eksport yo‘nalishlari va motor ishlab chiqarish zanjirini birlashtirgan murakkab sanoat modeliga aylangan.

2007-yildagi qo‘shma korxonalar kelishuvida GMning 25 foizlik ulushi, ishlab chiqarish quvvatini 250 ming avtomobilgacha yetkazish rejasi va GM tomonidan texnologiya, ishlab chiqarish tajribasi hamda treninglar berilishi ochiq qayd etilgan [8].

Masalaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda hamkorlikning iqtisodiy samarasini faqat tarixiy nuqtai nazardan emas, balki joriy moliyaviy natijalar, eksport tarkibi va ishlab chiqarish quvvati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar asosida qayta baholash zarurati mavjud.

JSC “UzAuto Motors”ning 2025-yil 1-yarim yillik hisobotida korxonalar hanuz Chevrolet brendi ostida avtomobil va ehtiyot qismlar sotishi, 2017-yilda GM Alliance platformasi shakllantirilgani va aynan shu platforma orqali GM texnologiyalari hamda nou-xauiga kirish saqlanib qolgani ko‘rsatilgan. Bu esa GMning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulushdorlik modeli yakunlangan bo‘lsa ham, hamkorlikning texnologik va institutsional izlari iqtisodiy faoliyatda davom etayotganini ko‘rsatadi [3].

Mazkur maqolaning maqsadi — GM va UzAuto Motors o‘rtasidagi hamkorlikning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tarixiy va zamonaviy manbalar asosida tizimli tahlil qilishdir. Tadqiqot vazifalari sifatida: hamkorlikning institutsional bosqichlarini aniqlash, ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlarini tavsiflash, moliyaviy natijalarni baholash hamda motor ishlab chiqarish zanjirining iqtisodiy o‘rnini ko‘rsatish belgilandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda hamkorlikning qiymati faqat umumiy tavsiflar bilan emas, balki ochiq manbalarda mavjud bo‘lgan kuzatiladigan ko‘rsatkichlar — ulushlar, quvvatlar, ishlab chiqarish hajmlari, eksport, daromad va foyda dinamikasi orqali baholandi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotning manba bazasini GM, UzAuto Motors, UzAuto Motors Powertrain va O‘zavtosanoatning ochiq e‘lon qilingan rasmiy yoki rasmiy hisobot xarakteridagi materiallari tashkil etdi. Jumladan, JSC “UzAuto Motors”ning 2024-yil yakunlari bo‘yicha konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari, 2025-yil 1-yarim yillik oraliq hisobotlari, JSC “UzAuto Motors Powertrain”ning 2024-yil moliyaviy hisobotlari, O‘zavtosanoatning tarixiy axborotlari va GMning investorlarga taqdim etilgan hisobot materiallaridan foydalanildi [1]–[6].

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, dinamik, strukturaviy va iqtisodiy-statistik usullar qo‘llanildi. Qiyosiy tahlil yordamida hamkorlikning 2007–2014 yillardagi sanoat bosqichi hamda 2024–2025 yillardagi moliyaviy bosqichi solishtirildi. Dinamik yondashuv asosida daromad, foyda, aktivlar, kapital va eksport ulushi o‘zgarishi hisoblandi.

Strukturaviy tahlil eksport va ichki sotuvlar nisbatini, shuningdek, avtomobil ishlab chiqarish bilan motor ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani baholashga xizmat qildi. Shuni ham alohida ta‘kidlash lozimki, ochiq manbalarda royalti, litsenziya to‘lovlari yoki texnologiya transferining to‘liq shartlari doimo ochiq qilinmagan; shu sababli maqolada bevosita kuzatiladigan iqtisodiy indikatorlar asosiy tahlil birligi sifatida olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1. *Hamkorlikning institutsional evolyutsiyasi va sanoat bazasining shakllanishi.* GM va O'zbekiston avtomobil sanoati o'rtasidagi yangi bosqich 2007-yil 8-oktabrdagi qo'shma korxonalar kelishuvi bilan boshlandi. Mazkur kelishuvga ko'ra, General Motors 25 foizlik ulushga ega bo'ldi, korxonalar "GM Uzbekistan" nomi ostida faoliyat yurita boshladi, ishlab chiqarish quvvati 250 ming avtomobil etib belgilandi hamda GM tomonidan yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish tajribasi va xodimlar tayyorlash mexanizmlari taqdim etilishi ko'zda tutildi. Ushbu kelishuv iqtisodiy nuqtai nazardan uch asosiy natijani berdi: birinchidan, milliy avtomobil sanoati global brend va model qatoriga ulandi; ikkinchidan, ishlab chiqarishning sifat nazorati va boshqaruv tizimi yangilandi; uchinchidan, kelajakdagi lokalizatsiya loyihalari uchun institutsional poydevor yaratildi [8].

2011-yilda hamkorlik yangi bosqichga o'tib, Tashkent yaqinida GM Powertrain Uzbekistan dvigatel zavodi ishga tushirildi. Manbalarda ushbu korxonada GMning 52 foiz, mahalliy sherikning esa 48 foiz ulushi bo'lgani, zavod yiliga 225 mingdan ortiq 1,2 va 1,5 litrli Ecotec dvigatellar ishlab chiqarishga mo'ljallangani, 1 200 tagacha ish o'rni yaratishi qayd etilgan.

Xuddi shu manbada GM Uzbekistanning o'zi 6 600 ga yaqin xodimga ega ekani va yiliga 200 mingdan ortiq Chevrolet avtomobillari ishlab chiqarayotgani ko'rsatilgan [7]. Demak, hamkorlikning dastlabki bosqichi nafaqat yakuniy avtomobil yig'ish, balki qiymat zanjirining yuqoriroq bo'g'ini — motor ishlab chiqarishga o'tish bilan tavsiflanadi.

Joriy hisobotlarda esa hamkorlikning shakli transformatsiyaga uchragani ko'rinadi. UzAuto Motorsning 2025-yil 1-yarim yillik hisobotiga ko'ra, korxonalar 2019-yil 1-iyuldan "General Motors Uzbekistan" nomidan "UzAuto Motors" nomiga o'tgan, 2017-yilda esa Ultimate Parent Company va GM o'rtasida "GM Alliance" nomli yangi hamkorlik platformasi shakllantirildi. Hisobotda aynan shu platforma GM avtomobil texnologiyalari va nou-xauiga kirish imkonini berishi, shu bilan birga avtomobil va dvigatel ishlab chiqarish bo'yicha operatsion nazorat mahalliy tomonga o'tgani ko'rsatilgan. Bu, o'z navbatida, hamkorlikning to'g'ridan-to'g'ri ulushdorlik modelidan texnologik-platformaviy modelga o'tganini anglatadi [3].

2. *Ishlab chiqarish va bozor ko'rsatkichlari.* Hamkorlikning iqtisodiy natijadorligini baholashda ishlab chiqarish va bozor ulushi muhim indikator hisoblanadi. General Motors Companyning 2012-yil I chorak 10-Q hisobotida O'zbekiston bozorida GM avtomobillarining ulushi 2012-yil I chorakda 93,5 foiz, 2011-yil I chorakda esa 94,1 foiz bo'lgani ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkich GM-Uzbekistan hamkorligi qisqa vaqt ichida ichki bozorda juda kuchli pozitsiyani egallaganini, ya'ni hamkorlikning bozor kapitalizatsiyasi va savdo natijasiga bevosita ta'sir qilganini ko'rsatadi [1].

2014-yilga kelib, sanoat ko'rsatkichlari yanada yiriklashganini ko'rish mumkin.

Uzavtosanoat matbuot xizmati ma'lumotiga ko'ra, 2014-yilda O'zbekistonda 245 700 ta avtomobil ishlab chiqarildi, ulardan 55 mingdan ortig'i eksport qilindi, shuningdek 133 700 dona dvigatel tayyorlangan va avtomobil sanoati korxonalari jami 8,9 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Mazkur ko'rsatkichlar hamkorlikning faqat ichki iste'mol segmenti bilan cheklanib qolmaganini, balki eksport va komponent ishlab chiqarish zanjirini ham kuchaytirganini isbotlaydi [9].

O'zavtosanoatning 2025-yildagi rasmiy axborotida Asaka zavodida 5 millioninchi avtomobil ishlab chiqarildi, tarixiy marralar sifatida 2008-yilda 1 millioninchi, 2014-yilda 2

millioninchi, 2018-yilda 3 millioninchi, 2022-yilda 4 millioninchi va 2025-yilda 5 millioninchi avtomobil konveyerdan chiqqani qayd etilgan. Ushbu qator ko'rsatkichlar ishlab chiqarish bazasi vaqt davomida uzluksiz kengayganini ko'rsatadi. Shu jihatdan, GM bilan shakllangan sanoat modeli keyinchalik UzAuto Motorsning mustaqil ishlab chiqarish miqyosini barqaror oshirishiga xizmat qilgan, degan xulosaga kelish mumkin [5].

2025-yil 1-yarim yillik hisobotida UzAuto Motorsning avtomobillarni asosan O'zbekiston va Qozog'iston bozorlarida Chevrolet brendi ostida sotishi, 2024 va 2025-yillarda sakkizta model ishlab chiqarilgani hamda korxonaning maksimal yillik ishlab chiqarish quvvati taxminan 430 ming avtomobilga teng ekani ko'rsatilgan. Bu esa dastlabki 250 minglik quvvat rejasiga nisbatan sanoat bazasi keyingi bosqichda sezilarli kengayganini anglatadi [3; 8].

3. *Moliyaviy ko'rsatkichlar: 2024-yil va 2025-yil 1-yarim yillik dinamikasi.* UzAuto Motorsning 2024-yil auditdan o'tgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotiga ko'ra, daromad 4 239 586 ming AQSh dollarini, sof foyda 314 948 ming dollarni, jami aktivlar 2 464 103 ming dollarni, jami kapital esa 908 801 ming dollarni tashkil etgan. 2023-yil restatatsiyalangan ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, 2024-yilda daromad 8,0 foizga, sof foyda 5,6 foizga va aktivlar 16,9 foizga kamaygan, biroq kapital 15,5 foizga oshgan. Kapitalning aktivlarga nisbati ham 2023-yildagi 26,5 foizdan 2024-yilda 36,9 foizga ko'tarilgan, bu esa korxonaning kapital bazasi nisbatan mustahkamlanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sof foyda marjasi 2023-yildagi 7,24 foizdan 2024-yilda 7,43 foizga bir oz yaxshilangan [2]. Bu holat daromad bazasi qisqargan sharoitda ham foyda sifati to'liq yemirilmaganini anglatadi.

2025-yil 1-yarim yillik ma'lumotlari esa qisqa muddatli tarkibiy o'zgarishni ko'rsatadi.

Hisobotga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarmida jami daromad 1 643 727 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning mos davridagi 1 868 937 ming dollarga nisbatan 12,1 foizga kamaygan. Biroq shu davrda eksport tushumi 165 706 ming dollardan 177 207 ming dollarga oshgan, ya'ni qariyb 6,9 foizlik o'sish kuzatilgan. Natijada eksportning jami daromaddagi ulushi 2024-yil 1-yarim yillikdagi 8,9 foizdan 2025-yilda 10,8 foizga ko'tarilgan. Demak, qisqa muddatli ichki talab pasayishi sharoitida eksport nisbatan muhimroq stabilizatorga aylanib bormoqda [3].

2024-yil moliyaviy hisobotida yana bir muhim ko'rsatkich qayd etilgan: kompaniyaning SUV-B va B-segmentdagi yangi modellarni GEM platformasi asosida rivojlantirish bo'yicha 30,799 mln AQSh dollari miqdorida kapital majburiyatlari mavjud. Ushbu ko'rsatkich model yangilanishi va platforma modernizatsiyasi davom etayotganini ko'rsatadi. Ya'ni hamkorlikning bugungi iqtisodiy ta'siri faqat tarixiy ishlab chiqarish natijalari bilan emas, balki yangi platformalarga yo'naltirilayotgan sarmoyaviy majburiyatlar bilan ham namoyon bo'lmoqda [2].

4. *Povertrain integratsiyasi va zanjir samaradorligi.* UzAuto Motors Powertrainning 2024-yil moliyaviy hisobotida ushbu korxonada 2009-yilda JSC General Motors Powertrain-Uzbekistan sifatida tashkil etilgani, dastlabki aksiyadorlar tarkibida Uzavtosanoat, General Motors Corporation va General Motors International Holding Inc. bo'lgani, 2019-yilda nomi UzAuto Motors Powertrainga o'zgargani ko'rsatilgan. Hisobotda shuningdek, 2012-yilda 1,2 va 1,5 litrli B-DOHC dvigatellar seriyali ishlab chiqarila boshlagani, 2023-yilda esa Chevrolet Onix va Tracker uchun yangi avlod 1,2 litrli CSS Prime dvigatellari yo'lga qo'yilgani qayd etiladi.

Zavodning nominal quvvati yiliga 325 ming, maksimal quvvati esa 356 ming dvigatel etib belgilangan. Bu ko'rsatkichlar avtomobil yig'ish hamkorligining vaqt o'tishi bilan chuqurlashib, yuqori texnologik komponent ishlab chiqarish bosqichiga o'tganini yaqqol ko'rsatadi [4].

Powertrain korxonasi 2024-yilgi iqtisodiy natijalari ham e'tiborga molik. Hisobotga ko'ra, dvigatel savdosidan tushum 4 634 534 mln so'mni, ehtiyot qismlar savdosidan tushum 57 976 mln so'mni tashkil etgan; jami tushumning asosiy qismi — 4 680 328 mln so'm — JSC UzAuto Motors hissasiga to'g'ri kelgan. 2023-yil bilan taqqoslaganda, UzAuto Motorsga yetkazib berishdan tushum 14,4 foizga, dvigatel savdosining o'zi esa 14,7 foizga oshgan. Biroq foyda oldi rentabelligi 2023-yildagi 6,59 foizdan 2024-yilda 5,23 foizga tushgan. Bu esa integratsiyalashgan ishlab chiqarish zanjiri hajman kengayayotgan bo'lsa-da, xarajat bosimi va marja qisqarishi muammosi mavjudligini ko'rsatadi [4].

### **MUHOKAMA**

Olingan natijalar GM va UzAuto Motors o'rtasidagi hamkorlikni uch bosqichli iqtisodiy model sifatida talqin qilish imkonini beradi. Birinchi bosqich — 2007–2011 yillar — kapital, brend, texnologiya va boshqaruv tajribasi kirib kelgan davr bo'lib, unda qo'shma korxonalar modeli asosiy rol o'ynagan [7; 8]. Ikkinchi bosqich — 2011–2019 yillar — motor zavodi, eksport kengayishi va ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi bilan tavsiflanadi [7; 9]. Uchinchi bosqich esa 2019-yildan keyingi transformatsion davr bo'lib, unda to'g'ridan-to'g'ri ulushdorlik o'rnini brend, platforma va nou-xau asosidagi hamkorlik egallagan [3; 4].

Mazkur modelning eng muhim iqtisodiy natijasi shundaki, hamkorlik O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqarishni oddiy montaj bosqichidan ko'p bo'g'inli sanoat zanjiriga olib chiqdi.

Bunga bozor ulushining yuqoriligi, eksportning shakllanishi, dvigatel ishlab chiqarishning lokalizatsiyasi, ishlab chiqarish quvvatining 250 minglik boshlang'ich rejadan 430 ming avtomobilgacha kengaygani va 5 million avtomobilga yetgan kumulyativ natija dalil bo'la oladi.

Shu bilan birga, 2024–2025 yillardagi moliyaviy ma'lumotlar bu model endilikda yangi vazifalarni ham talab qilayotganini ko'rsatadi: ichki bozor talabidagi o'zgarishlar, xarajat bosimi, foyda marjasining ehtiyotkor boshqaruvi va eksportning yanada barqarorlashtirilishi shular jumlasidandir [2; 3; 4].

Shu nuqtai nazardan, GM bilan hamkorlikning bugungi iqtisodiy qiymati faqat tarixiy kapital ishtirokida emas, balki hosil qilingan sanoat infratuzilmasi, Chevrolet brendi ostida saqlanayotgan bozor arxitekturasi, GM Alliance doirasidagi texnologik kirish va GEM platformasi kabi yangilanish loyihalarida namoyon bo'ladi [2; 3]. Demak, ushbu hamkorlikni tugagan loyiha sifatida emas, balki shakli o'zgargan va iqtisodiy natijasi davom etayotgan sanoat-ekotizim sifatida baholash ilmiy jihatdan to'g'riroq bo'ladi.

### **XULOSA**

Tadqiqot natijalari GM va UzAuto Motors o'rtasidagi hamkorlik O'zbekiston avtomobil sanoatining institutsional va iqtisodiy shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutganini ko'rsatdi.

Dastlabki bosqichda GMning 25 foizlik ishtiroki, texnologiya va menejment transferi, 250 ming avtomobillik rejalashtirilgan quvvat va global Chevrolet tizimiga kirish ushbu hamkorlikning asosiy iqtisodiy tayanchlari bo'lgan [8]. Keyingi bosqichda esa motor zavodining ishga tushirilishi, 225 mingdan ortiq dvigatel quvvati, 2014-yildagi 245,7 ming avtomobil va 55 mingdan ortiq eksport ko'rsatkichlari hamkorlikning sanoat chuqurlashuvini ta'minlagan [7; 9].

Joriy bosqichda UzAuto Motors allaqachon mustaqil korporativ modelga o'tgan bo'lsa-da, 2025-yilgi hisobotlarda Chevrolet brendi, GM Alliance, platforma yangilanishi va texnologik nou-xauning davomiyligi saqlanib qolgan [3]. 2024-yil yakunlari bo'yicha daromad va foyda qisqargan bo'lsa-da, kapital bazasi mustahkamlangan; 2025-yil 1-yarim yillikda esa eksport ulushi oshgan [2; 3]. Powertrain bo'g'inida esa tushum o'sishi saqlangan bo'lsa-da, rentabellik bosimi sezilgan [4]. Shunday qilib, GM-UzAuto Motors hamkorligi iqtisodiy jihatdan tarixiy bir martalik loyiha emas, balki shakli o'zgarib borayotgan, ammo ishlab chiqarish quvvati, eksport, texnologik modernizatsiya va qiymat zanjiri integratsiyasi orqali samara berishda davom etayotgan sanoat modeli sifatida baholanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. General Motors Company. *GM 2012 Q1 10-Q Report*. General Motors Company, 2012.
2. JSC "UzAuto Motors". *Consolidated Financial Statements for the year ended 31 December 2024 and Independent Auditor's Report*. Tashkent, 2025.
3. JSC "UzAuto Motors". *Interim Condensed Consolidated Financial Information for the six months period ended 30 June 2025 (unaudited)*. Tashkent, 2025.
4. JSC "UzAuto Motors Powertrain". *Financial Statements for the year ended 31 December 2024*. Tashkent, 2025.
5. O'zavtosanoat AJ. *5 Million Vehicles!* 2025.
6. O'zavtosanoat AJ. *Key dates*. 2026.
7. UzDaily. *GM opens engine plant in Uzbekistan*. 2011.
8. UzDaily. *GM Uzbekistan Joint Venture to build and sell Chevrolets*. 2007.
9. UzDaily. *Uzbekistan produces 245,700 automobiles in 2014*. 2015.